

“MEHROBDAN CHAYON” ROMANI VA UNING TARJIMASIDA SHART ERGASHGAN QO'SHMA GAPLARNING SINTAKTIK EKVIVALENTLIGI

Asrorxo'jayeva Saltanatxon Saidakbar qizi

Toshkent Davlat Sharqshunoslik universiteti

Lingvistika (arab tili) yo 'nalishi magistratura 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: H.Yuldasheva, filologiya fanlar doktori, dotsent.

Annotatsiya: ushbu maqolada o'zbek tilidagi shart ergashgan qo'shma gaplarning arab tiliga tarjimasida sintaktik ekvivalentlikning saqlanishi, yoki tarjima jarayonida sodir bo'ladigan grammatik, gaplardagi transformatsiya jarayonini Abdulla Qodiriyning Mehrobdan Chayon romanining arab tiliga qilingan tarjimasidan olingan misollar yordamida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Leksika, grammatika, sintaktik tuzilish, sintaktik ekvivalentlik, semantik ekvivalentlik, estetik ta'sir, ergashgan qo'shma gaplar, tarjimashunoslik, badiiy tarjima, bog'lo'vchilar, yuklamalar, fraza, lingvistik transformatsiya,

СИНТАКСИЧЕСКАЯ ЭКВИВАЛЕНТНОСТЬ В УСЛОВНЫХ ПРИДАТОЧНЫХ ПРЕДЛОЖЕНИЯХ В РОМАНЕ «МЕХРОБДАН ЧАЁН» И В ЕГО ПЕРЕВОДЕ.

Аннотация: В данной статье на материале примеров, взятых из арабского перевода романа “Mehrobdan chayon” узбекского писателя Абдуллы Кадыри, анализируется сохранение синтаксической эквивалентности условных придаточных предложений при переводе с узбекского языка на арабский, а также грамматические изменения, происходящие в процессе перевода.

Ключевые слова: лексика, грамматика, синтаксическая структура, синтаксическая эквивалентность, семантическая эквивалентность, эстетическое воздействие, сложноподчинённые предложения, переводоведение, художественный перевод, союзы, частицы, фраза, лингвистическая трансформация

SYNTACTIC EQUIVALENCE OF CONDITIONAL SUBORDINATE CLAUSES IN THE NOVEL MEHROBDAN CHAYON AND IN ITS TRANSLATION.

Abstract: This article analyzes the preservation of syntactic equivalence in the translation of conditional subordinate clauses from Uzbek into Arabic, as well as the grammatical changes occurring in the process of translation. The analysis is based on examples taken from the Arabic translation of the novel Mehrobdan chayon by the Uzbek writer Abdulla Qodiriy.

Keywords: lexicon, grammar, syntactic structure, syntactic equivalence,

semantic equivalence, aesthetic effect, complex subordinate clauses, translation studies, literary translation, conjunctions, particles, idiom, linguistic transformation

KIRISH

Arab tili dunyo miqyosida eng qadimgi tillardan biri bo'lib, u o'zining boy tarixi, leksikasining rang barangligi va albatta, murakkab grammatikasi bilan alohida ajralib turadi. O'zbek va arab tillari turli til oilalariga mansub ekanligi tufayli, ularning sintaktik tuzilishida bir qancha farqli jihatlar ayniqsa tarjima jarayonida yaqqol ko'zga tashlanadi. Xususan ergashgan qo'shma gaplarning tarjimasida o'zbek va arab tillarida sintaktik ekvivalentlik mavzusi o'ta dolzarb bo'lib, badiiy matn tarjimasida nafaqat semantik, balki sintaktik ekvivalentlikni ta'minlash o'ta muhim o'ringa ega, chunki muallifning uslubi, obrazlilik hamda matnning badiiy estetik ta'siri sintaktik vositalar yordamida ifodalanadi. O'zbek adabiyotining yirik vakili Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan Chayon" romani murakkab sintaktik qurilmalarga boyligi bilan alohida ajralib turadi. Ushbu asarning 2024 – yilda Sayyid Mahmud Sayyid Mubashshir tomonidan arab tiliga tarjima qilinishi nafaqat adabiyotimiz, balki tilshunoslik sohasi uchun ham salmoqli voqea bo'ldi. Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev adabiyot va ma'naviyatni jamiyat taraqqiyotidagi muhim ro'lini e'tirof etib, "ilmga, ma'naviyatga e'tibor qilmay turib, iqtisodiyotimizni hech qachon rivojlantira olmaymiz"¹ deb ta'kidlaydi. Zero, o'zbek tili va adabiyotimizning durdonalarini targ'ib qilib, ularni jahonga tanitishda ushbu asar tarjimasi yirik qadam bo'ldi. Endi esa ushbu ilmiy maqolada ikki til sintaksisni qiyosiy o'rganish, ulardagi struktur farqlarni hamda ushbu farqlarning mazmunga ta'sirini tahlil qilish uchun yirik manba vazifasini o'taydi. Mazkur maqolada, romandagi shart ergashgan qo'shma gaplarning arabcha tarjimasida sintaktik ekvivalentlik masalasi tahlil qilinadi, gaplardagi grammatik o'zgarishlar, ularni mazmunni qanchalik ochib bera olganligini o'rganish orqali, ikki tildagi shart ergashgan qo'shma gaplar qiyoslanadi.

ASOSIY QISM

Badiiy matn tarjimasi tarjimashunoslik sohasidagi eng nozik nuqtalardan biri bo'lib, ergashgan qo'shma gaplar deyarli har bir tilda murakkab grammatika na'munasi hisoblanadi. Ingliz tarjimashunos va adabiyotshunosi P. Newmark ta'kidlaganidek "badiiy tarjima aniqlik va tabiiylik o'rtasida muvozanatni saqlashni talab qiladi, chunki tarjimon asarning mazmuni bilan birga undagi badiiylikni ham saqlab qolishi kerak"². O'zbek tilida shart ergashgan qo'shma gapga to'xtalsak, "shart ergashgan gaplar -sa, agar, mabodo kabi vositalar orqali ifodalanib, sababiylik va ehtimollik munosabatini

¹ Mirziyoyev Sh.M. Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabiga tashrifi davomidagi nutqi. Toshkent, 2019 – yil 26 – dekabr // Kun.uz.

² Newmark. P. A textbook of translation. New York: Prentice Hall, 1988.

anglatadi”³. Arab tilining nuqtai nazarida esa “Jumla Shartiyva ikki qismdan iborat: shart va natija. Bu tuzilma voqea va uning oqibatini grammatik jihatdan bog’laydi.”⁴. Garchi shart ergashgan gap sifatida ifodalanib sabab va ehtimollarni ochib berayotgan jumalarning ikki tildagi ta’riflari o’xshash bo’lsa-da, tarjima jarayonida o’z strukturasini saqlab qolishi qiyin holat. Mehrobdan Chayon romanidan olingan ushbu shart ergashgan qo’shma gapni tahlil qilsak:

*Agar yamoqchi kekirarlik darajada tomoqni bopta qilsa, ishi o’ngidan kelib istiqboli bir muncha ta’minlangandek bo’lsa, darxol vaziyat ishonmaslik darajada o’zgarib ketadur.*⁵

Ushbu gapda ikkita ketma ket kelgan shart ergashgan qo’shma gaplar asosiy gapga -agar va -sa shart bog’lovchilari orqali bog’lanmoqda, bog’lovchilardan ochiq foydalanilganidan gapning turi ham yaqqol ko’zga tashlanib turibdi. Ushbu gap romanning arab tilidagi tarjimasida quyidagicha aks etgan:

وإذا ما فتح الله عليه وتحسنت احواله، لرأيناه وقد تغيرت حالته ونفسيته⁶

Avvalambor, tarjima so’zma so’z bajarilmagan. Zero, badiiy matnni so’zma so’z tog’ri tarjima qilib undagi mazmunni saqlab qolish atroflicha qiyin masala. Ammo gapning asli va arabcha tarjimasida ham subyekt + predikat tartibi saqlangan. Ushbu gapning tarjimasida quyidagicha bo’ladi:

Agar Alloh unga yordam bersa va ahvoli yaxshilansa, biz uning vaziyati va o’zining o’zgarganiga guvoh bo’lamiz.

Ushbu gapda roman originalining strukturasini imkon qadar saqlab qolingani, zero, o’zbek tilida -agar va -sa bilan ifodalangan shart holati, arab tilidagi *إذا* va *شأن* shart yuklamalari bilan ifodalangan. Ushbu yuklamalar o’zbek tilidagi - agar va -sa yuklamalariga to’liq mos keladi. Bu esa tarjimada gapning strukturaviy ekvivalentligini saqlanganini bildiradi. Ammo, ushbu gapda qahramonning holatini ifodalash uchun muallif xalq iborasidan ya’ni “*yamoqchi kekirarlik darajada tomoqni boptasa*” frazemasidan foydalangan bo’lib, odatda bu ibora uzoq vaqt yo’qchilikda yashab, birdaniga vaziyati yaxshilangan yoki mavqei oshgan odamga nisbatan ishlatiladi. Tabiiyki, bu iborani to’g’ridan to’g’ri tarjima qilishning va undagi mazmunni saqlashning imkoni yo’q. shu sababli bo’lsa kerak undagi mazmun

وإذا ما فتح الله عليه ya’ni *Agar Alloh unga yordam bersa*

iborasi orqali ifodalagan. Bu hodisa tilshunoslikda idiomatik ekvivalentlik deb ataladi. “Tarjima jarayonida asosiy maqsad – manba tilidagi mazmunni va shaklni imkon qadar tabiiy va ekvivalent tarzda maqsad tilida ifodalashdir.”⁷ Yuqoridagi tahlil va N. Eugenia tomonidan berilgan fikr asosida, ushbu namunada to’liq sintaktik-

³ Abdurahmonov G’ va boshqalar. Hozirgi O’zbek adabiiy tili. Toshkent: O’qituvchi.

⁴ Al-Ghalayini, Mustafa. Jami al-Durus al-Arabbiya. Bayrut.

⁵ A.Qodiriy. Mehrobdan chayon Toshkent: Sharq, 2020 16-bet.

A.Qodiriy. I’qrob fi al-mihrob. Ar-Riyod: 2024 38-bet

⁷ Nida, Eugenia A. Toward a science of translating. Leiden: Brill, 1969.

struktur ekvivalentlik mavjud, degan hulosani berish mumkin. Lekin hamma gaplarda ham sintaktik – struktur ekvivalentlini va mazmunni birdek saqlash murakkab masala. Ayniqsa, bu holat badiiy matn tarjimasiga hos holat. Zero, badiiy matn yoki adabiyot namunalarini tarjima qilishda tarjimonning birlamchi vazifasi asarning mazmunini undagi badiiylilikni, o'ziga hos muhitni va muallifning uslubini saqlagan holda tarjima qilishdan iborat. Bu maqsadga erishish uchun, zarurat bo'lsa, matn sintaktik strukturasi transformatsiyaga yuz tutishi, gaplarni soddalashtirish yoki murakkablashtirish, xalq iboralarini tarjima qilingan tildagi analoglari bilan almashtirish kabi holatlar to'g'ri qabul qilinadi. Tilshunos J.C. Catford matn tarjimasida mazmuniy moslikning ahamiyati haqida gapirar ekan “Sintaktik o'zgarishlar tarjimada til tizimlari farqi sababli yuzaga keladi, lekin ular mazmuniy moslikni buzmasligi kerak.”⁸ degan fikrni bildirgan. Quyidagi namunada ham aynan shunday holatlarni kuzatish mumkin:

*Yuqori tabaqa oilalariga kirib qarasak, munda tamoman boshqacha manzara ko'ramiz.*⁹

Ushbu gapda muallif -sa shart bog'lo'vchisidan foydalangan, ammo unda subyekt yashirin, ya'ni implisit holatta ifodalangan. Uning tobe gap + hokim gap shaklidagi tuzilishi shart ergashgan qo'shma gap ekanligini yaqqol ko'rsatib turibdi. Romanning arab tiliga qilingan tarjimasida esa gap mazmunini saqlasada, sintaktik nuqtai nazardan o'zbek tilidagi ko'rinishiga ekvivalent emas, chunki tarjima jarayonida *جملة خبرية* ya'ni habarni ifodalo'vchi darak gapga o'zgartirilgan.

¹⁰ *الحال في الطبقات المرموقة تختلف كلياً عما ذكر*

ya'ni to'g'ridan to'g'ri tarjimada “*yuqori tabaqadagi oilalardagi holat oldin aytilgan narsadan butkul farq qilad*” shaklida aks ettirilgan.

الحال في الطبقات المرموقة - yuqori tabaqa oilalardagi holat – sub'ek

تختلف - butkul farq qiladi – predikat

كلياً عما ذكر – oldin aytilgan narsadan – to'ldiruvchi

Tarjimadagi Gapning tuzilishi oddiy, unda gapning originalidan farqli o'laroq shart yuklamalaridan (*إن، إذ، لو* va bosh.) foydalanilmagan, bu esa arab tilida shart ergashgan qo'shma gapning asosiy talablaridan biri hisoblanadi. Ushbu gap sintaktik ekvivalentlik nuqtai nazaridan arab tilida to'liq transformatsiyaga uchragan, o'zbek tilida shart ergashgan gap orqali ifodalangan bo'lsa, tarjimada gapning strukturasi soddalashtirilgan. Bu esa tarjima sohasida normal holat bo'lib, “Tarjimon murakkab sintaktik tuzilmalarni saqlash yoki ularni soddalashtirish orqali tilida aniqlik va tabiiylilikni ta'minlashi kerak.”¹¹

XULOSA

Ushbu maqolada o'zbek tilida shart ergashgan qo'shma gaplarni arab tiliga

⁸ Catford, J. C. A Linguistic Theory of Translation. London: Oxford University Press, 1965.

⁹ A.Qodiriy. Mehrobdan chayon (Toshkent: Sharq, 2020) 16-bet.

¹⁰ A.Qodiriy. I'qrob fi al-mihrob. Ar-Riyod: 2024 39-bet

¹¹ Newmark, Peter. Approaches to Translation. Oxford: Pergamon Press, 1981.

tarjima qilinganida struktur – sintaktik ekvivalentligini saqlab qolish, yoki mazmunni asrash maqsadida gaplarning transformatsiyaga yuz tutishi, soddalashishi yoki murakkablashish holati ko'rib chiqildi. Tadqiqot ishi uchun A.Qodiriyning Mehrobdan chayon romani va uning arab tiliga qilingan tarjimasidagi ayrim jumlar namuna sifatida tanlab olindi. Avvalambor, sintaktik ekvivalentlikni saqlash murakkab masala, bunda o'zbek va arab tillarining turli til oilalariga mansub ekanligi, ulardagi gap tuzilishi bir biridan farqli ekanligi muhim ro'l o'ynaydi. Ammo shunga qaramay, ayrim gaplarda asosiy struktura saqlangan, o'zbek tilidagi "agar ...sa" konstruksiyasi arab tilidagi *إذا ما* va *ل* yuklamalari orqali ifodalangan. Lekin struktur transformatsiya holati ham tarjimada ko'p uchraydi, xususan yuqoridagi na'munalrning birida shart ergashgan qo'shma gapni arab tilida oddiy darak gapga o'tkazilganiga guvoh bo'ldik, ammo tarjimon bu usuldan mazmunni saqlash uchun foydalangan. Tadqiqot natijasi sifatida shuni ta'kidlash mumkinki, badiiy matn tarjimasida semantik moslikni saqlash asosiy maqsad hisoblanadi. Agar zarurat bo'lsa, gaplarni soddalashtirish yoki murakkabashtirish, xalqona iboralarni tarjima qilinayotgan tildagi munosib analoglar bilan almashtirish ham mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabiga tashrifi davomidagi nutqi. Toshkent, 2019 – yil 26 – dekabr // Kun.uz.
2. A.Qodiriy. Mehrobdan chayon (Toshkent: Sharq, 2020)
3. Newmark. P. A textbook of translation. New York: Prentice Hall, 1988.
4. Abdurahmonov G' va boshqalar. Hozirgi O'zbek adabiiy tili. Toshkent: O'qituvchi
5. N. Ibrohimov, M. Yusupov. Arab tili grammatikasi. Toshkent
6. Al-Ghalayini, Mustafa. Jami al-Durus al-Arabbiya. Bayrut
7. Catford, J. C. A Linguistic Theory of Translation. London: Oxford University Press, 1965.
8. Newmark, Peter. Approaches to Translation. Oxford: Pergamon Press, 1981.